ISNN 3030-3907

2026
MAY
ISSUE - 5
VOLUME -11

DEVELOPMENT OF SCIENCE

scientific journal



Development of science

Ilmiy jurnal

MAY 2026
Issue - 5, VOLUME – 11

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

O‘ZBEKISTONDA INFLYATSION TARGETLASH SIYOSATI VA MAKROIQTISODIY BARQARORLIK: 2000–2025 YILLAR BO‘YICHA EMPIRIK TAHLIL

Sulaymonov Azamat Ilhomovich
Buxoro davlat texnika universiteti, “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi assistenti
Muhiddinova Nigina Isomiddinovna
Buxoro davlat texnika universiteti, “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi o‘qituvchi-stajori
Yodgorova Zarnigor Yahyo qizi
Buxoro davlat texnika universiteti, “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi o‘qituvchi-stajori

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotida 2000–2025 yillar davomida inflyatsiya, iqtisodiy o‘sish, xorijiy investitsiyalar va makroiqtisodiy barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik empirik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida deskriptiv statistika, korrelyatsion va regressiya tahlili usullaridan foydalanildi. Tahlil natijalari inflyatsiyaning iqtisodiy o‘sishga salbiy ta’sir ko‘rsatishini aniqladi. Jumladan, inflyatsiyaning 1 foiz punktga oshishi YaIM o‘sish sur’atining o‘rtacha 0,22 foiz punktga pasayishiga olib kelishi kuzatildi. Tadqiqot natijalari inflyatsiyaning xorijiy investitsiyalar oqimiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. O‘zbekiston iqtisodiyotida 2000–2025 yillar davomida o‘rtacha inflyatsiya darajasi 10,4 foizni, standart og‘ish esa 6,38 foiz punktni tashkil etdi, bu esa inflyatsiya darajasining yuqori o‘zgaruvchanligini ko‘rsatadi. Tadqiqotda inflyatsion targetlash siyosati makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynagani, biroq 2023-yilgacha 5 foizlik inflyatsiya maqsadiga to‘liq erishilmaganligi aniqlandi. Mazkur holat iqtisodiy liberallashuv, valyuta kursining erkinlashtirilishi, tarif islohotlari va global inflyatsion bosimlar bilan izohlanadi.

Kalit so‘zlar: inflyatsiya, inflyatsion targetlash, YaIM, xorijiy investitsiyalar, makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o‘sish, regressiya tahlili.

Аннотация. В данной статье на основе эконометрических методов анализируется взаимосвязь между инфляцией, экономическим ростом, иностранными инвестициями и макроэкономической стабильностью в экономике Узбекистана за 2000–2025 годы. В ходе исследования были использованы методы описательной статистики, корреляционного и регрессионного анализа. Результаты анализа показали отрицательное влияние инфляции на экономический рост. В частности, увеличение инфляции на 1 процентный пункт приводит в среднем к снижению темпов роста ВВП на 0,22 процентного пункта. Результаты исследования также показали отрицательное влияние инфляции на приток иностранных инвестиций. Средний уровень инфляции в Узбекистане за 2000–2025 годы

ISSN 3030-3907

составил 10,4%, а стандартное отклонение — 6,38 процентного пункта, что свидетельствует о высокой волатильности инфляции в экономике страны. В исследовании установлено, что политика инфляционного таргетирования сыграла важную роль в укреплении макроэкономической стабильности, однако целевой уровень инфляции в 5% к 2023 году не был полностью достигнут.

Ключевые слова: инфляция, инфляционное таргетирование, экономический рост, ВВП, иностранные инвестиции, макроэкономическая стабильность, регрессионный анализ.

Abstract. This article analyzes the relationship between inflation, economic growth, foreign investment, and macroeconomic stability in Uzbekistan during 2000–2025 using econometric methods. Descriptive statistics, correlation analysis, and regression analysis were applied in the study. The results revealed that inflation has a negative impact on economic growth. In particular, a one percentage point increase in inflation leads to an average decline of 0.22 percentage points in GDP growth. The findings also indicate a negative relationship between inflation and foreign direct investment inflows. During 2000–2025, the average inflation rate in Uzbekistan amounted to 10.4%, while the standard deviation reached 6.38 percentage points, indicating relatively high inflation volatility in the national economy. The study concludes that inflation targeting policy played an important role in strengthening macroeconomic stability; however, the targeted 5% inflation rate by 2023 was not fully achieved.

Keywords: inflation, inflation targeting, economic growth, GDP, foreign investment, macroeconomic stability, regression analysis.

KIRISH.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilgan tarkibiy va institutsional islohotlar mamlakatning makroiqtisodiy rivojlanishida muhim o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish, valyuta kursining liberallashuvi, investitsion muhitning yaxshilanishi hamda iqtisodiyotning tashqi dunyoga ochilishi iqtisodiy o‘sish sur’atlarining jadallashuviga xizmat qildi. Shu bilan birga, ushbu jarayonlar inflyatsion bosimlarning kuchayishi, narxlar barqarorligining buzilishi va makroiqtisodiy muvozanat bilan bog‘liq muammolarni ham yuzaga keltirdi.

Makroiqtisodiy nazariyada inflyatsiya iqtisodiy o‘sishning asosiy determinantlaridan biri sifatida qaraladi. Yuqori inflyatsiya investitsion faollikni pasaytiradi, ishlab chiqarish xarajatlarini oshiradi, aholi real daromadlarini kamaytiradi hamda iqtisodiy subyektlar uchun noaniqlikni kuchaytiradi. Shu sababli zamonaviy monetar siyosatda narxlar barqarorligini ta’minlash markaziy banklarning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

ISSN 3030-3907

O‘zbekistonda inflyatsion targetlash rejimiga o‘tish masalasi davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-noyabrdagi PF–5877-son Farmonida inflyatsiyani 2021-yilgacha 10 foizgacha, 2023-yilgacha esa 5 foizgacha pasaytirish maqsadi belgilangan. Mazkur siyosatning asosiy maqsadi makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, investitsion muhitni yaxshilash va uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashdan iborat bo‘ldi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi O‘zbekistonda inflyatsiya, xorijiy investitsiyalar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni empirik jihatdan tahlil qilish hamda inflyatsion targetlash siyosatining samaradorligini baholashdan iborat.

NAZARIY QISM.

Makroiqtisodiy nazariyada inflyatsiya va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi uzoq yillardan buyon iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlari markazida bo‘lib kelmoqda. Monetaristik maktab vakillari yuqori inflyatsiya iqtisodiy o‘sish sur’atlarini sekinlashtirishini, investitsion faollikni pasaytirishini va iqtisodiyotda noaniqlikni kuchaytirishini ta’kidlaydilar. Keynesiy yondashuv esa qisqa muddatli davrda mo‘tadil inflyatsiya iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Rivojlanayotgan va transformatsion iqtisodiyotlarda inflyatsiya va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik ayniqsa murakkab xarakterga ega. Bozor institutlarining shakllanishi, valyuta kursining liberallashuvi, energetika va kommunal tariflar islohoti, investitsion muhitdagi o‘zgarishlar inflyatsion bosimlarni kuchaytirishi mumkin. Shu bilan birga, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash investitsion jozibadorlik va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar inflyatsion targetlash tizimiga o‘tishni jadallashtirdi. PF–5877-son Farmonda narxlar barqarorligini ta’minlash iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan bo‘lib, unda inflyatsiya darajasining pasayishi investitsion muhitni yaxshilash, milliy valyutaga ishonchni mustahkamlash va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishning muhim sharti sifatida ko‘rsatilgan.

Shu bilan birga, O‘zbekiston iqtisodiyotida inflyatsion targetlash siyosatining iqtisodiy o‘sish va investitsiyalar bilan bog‘liqligini ekonometrik usullar asosida tahlil qiluvchi tadqiqotlar yetarli darajada shakllanmagan. Mazkur maqola aynan ushbu yo‘nalishdagi ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Tadqiqot davomida O‘zbekistonning 2000–2025 yillardagi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari asosida ekonometrik tahlillar amalga oshirildi. Tadqiqotning axborot bazasini

ISSN 3030-3907

O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi va Markaziy bank ma’lumotlari tashkil etdi.

Tahlilda quyidagi usullardan foydalanildi:

- deskriptiv statistika;
- korrelyatsion tahlil;
- oddiy chiziqli regressiya;
- iqtisodiy-mantiqiy tahlil.

Tadqiqotda asosiy bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida YaIM o‘sish sur’ati, mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida esa inflyatsiya darajasi, xorijiy investitsiyalar va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar ko‘rsatkichlari tanlandi.

Regressiya tahlili natijalariga ko‘ra quyidagi iqtisodiy bog‘liqliklar aniqlandi:

1. Inflyatsiya va iqtisodiy o‘sish o‘rtasida salbiy bog‘liqlik mavjud.
2. Inflyatsiya va xorijiy investitsiyalar o‘rtasida teskari bog‘liqlik kuzatiladi.
3. Xorijiy investitsiyalar va YaIM o‘rtasida uzoq muddatli ijobiy bog‘liqlik mavjud.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA. Deskriptiv statistika natijalariga ko‘ra, 2000–2025 yillar davomida O‘zbekiston iqtisodiyotida o‘rtacha inflyatsiya darajasi 10,4 foizni tashkil etdi. Standart og‘ish ko‘rsatkichining 6,38 foiz punktga teng bo‘lishi inflyatsiyaning nisbatan yuqori o‘zgaruvchanlikka ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. Bu holat iqtisodiyotning transformatsion xususiyati, valyuta kursining liberallashuvi, energetika tariflari islohoti va tashqi iqtisodiy omillar bilan izohlanadi.

Korrelyatsion tahlil natijalari YaIM va xorijiy investitsiyalar o‘rtasida yuqori ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Tahlilda aniqlangan korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,85 dan yuqori bo‘ldi. Shu bilan birga, regressiya natijalarida xorijiy investitsiyalar va YaIM o‘rtasida uzoq muddatli ijobiy bog‘liqlik mavjudligi kuzatildi. Modelning determinatsiya koeffitsiyenti (R^2) 0,937 ni tashkil etdi. Bu nominal YaIM va xorijiy investitsiyalar vaqt davomida birgalikda o‘sib borganligini ko‘rsatadi.

Biroq mazkur natijalarni talqin qilishda ehtiyotkorlik talab etiladi, chunki vaqt qatorlari bo‘yicha trendning mavjudligi “spurious regression” ehtimolini yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli tadqiqotda YaIM o‘sish sur’atlari asosida qo‘shimcha regressiya tahlillari ham amalga oshirildi.

Natijalarga ko‘ra, inflyatsiyaning 1 foiz punktga oshishi YaIM o‘sish sur’atining o‘rtacha 0,22 foiz punktga pasayishiga olib kelishi aniqlandi. Ushbu natija inflyatsiyaning iqtisodiy o‘sishga salbiy ta’sirini tasdiqlaydi. Yuqori inflyatsiya investitsion noaniqlikni kuchaytiradi, biznes xarajatlarini oshiradi va iqtisodiy subyektlarning uzoq muddatli rejalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi.

ISSN 3030-3907

Tahlillar shuningdek inflyatsiya va xorijiy investitsiyalar o‘rtasida salbiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Regressiya natijalariga ko‘ra, inflyatsiyaning oshishi xorijiy investitsiyalar oqimining kamayishiga olib kelmoqda. Bu esa investorlar uchun makroiqtisodiy barqarorlik va narxlar barqarorligi muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

2019-yildan boshlab O‘zbekistonda inflyatsion targetlash siyosatining joriy etilishi inflyatsiya darajasining ma’lum darajada pasayishiga xizmat qildi. Biroq 2023-yilgacha 5 foizlik maqsadli inflyatsiya darajasiga to‘liq erishilmadi. Mazkur holat quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- milliy valyuta kursining erkinlashtirilishi;
- energetika va kommunal xizmat tariflarining oshirilishi;
- iqtisodiy liberallashuv;
- COVID–19 pandemiyasi;
- global inflyatsion bosimlar;
- tarkibiy iqtisodiy islohotlar.

Shu bilan birga, inflyatsiya darajasining bosqichma-bosqich pasayishi inflyatsion targetlash siyosatining makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashdagi ijobiy rolini tasdiqlaydi.

XULOSA.

Mazkur tadqiqot O‘zbekistonda 2000–2025 yillar davomida inflyatsiya, xorijiy investitsiyalar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni ekonometrik usullar asosida tahlil qildi.

Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

- O‘zbekiston iqtisodiyotida inflyatsiya darajasi nisbatan yuqori o‘zgaruvchanlikka ega bo‘lgan;
- inflyatsiya iqtisodiy o‘sishga salbiy ta’sir ko‘rsatgan;
- inflyatsiya va xorijiy investitsiyalar o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjudligi aniqlangan;
- makroiqtisodiy barqarorlik investitsion muhitni yaxshilashning muhim sharti hisoblanadi;
- inflyatsion targetlash siyosati inflyatsiyani pasaytirishda muhim rol o‘ynagan bo‘lsa-da, 2023-yilgacha 5 foizlik maqsadga to‘liq erishilmagan.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari O‘zbekiston iqtisodiyotida uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun makroiqtisodiy barqarorlik, narxlar barqarorligi va inflyatsiyani nazorat qilish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-noyabrdagi PF–5877-son Farmoni “Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o‘tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. “Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar 2000–2025”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul-kredit siyosati sharhlari va hisobotlari.
4. Mishkin F. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. – Pearson Education, 2019.
5. Blanchard O. Macroeconomics. – Pearson, 2021.
6. Mankiw N.G. Principles of Economics. – Cengage Learning, 2020.
7. Romer D. Advanced Macroeconomics. – McGraw-Hill Education, 2018.
8. IMF. Inflation Targeting and Monetary Policy Frameworks in Emerging Economies. – Washington DC, 2022.
9. World Bank. World Development Indicators Database. – Washington DC, 2024.
10. Barro R., Sala-i-Martin X. Economic Growth. – MIT Press, 2004.

ISSN 3030-3907